O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2023 - yil 26 - may 153-2-0-Q/23 Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro viloyatining ma’muriy markazlari hududida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda 1 kv.metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga o’zgartirish kiritish haqida

“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-fevraldagi 3/26-19/629-sonli xatiga asosan viloyat hokimining 2023-yil 19-yanvardagi “Viloyatda davlat mulki bo‘lgan bino va inshootlardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara haqining 2023-yil uchun eng kam miqdordagi stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 19-2-0-Q/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2023-yil uchun davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqining eng kam stavkalarini qo'shimcha qiymat solig'i asosida hisoblanishini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-fevraldagi 3/26-19/629-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining 2023-yil 19-yanvardagi 19-2-0-Q/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Buxoro viloyatining ma’muriy markazlari hududida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda 1 kv.metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari”dagi “2023-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari” so'zlaridan keyin “(QQS bilan birga)” so'zlari bilan to'ldirilsin.

3. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - J.Tursunov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**